O'zbekiston florasida noyob turlarning yangi topilmalari

Floristik tadqiqotlar hozirgi davrning global muammosini – biologik xilma-xillikni o'rganish va saqlashni amalga oshirishning muhim tarkibiy qismlaridan biridir. Ushbu muammoning yechimi atrof-muhitga antropogen ta'sir kuchayib borishi munosabati bilan o'simliklarning hozirgi holati to'g'risida ilmiy asoslangan ma'lumotlarni olish zarurati bilan asoslanadi. O'rta Osiyo tog'larida olib borilayotgan keng ko‘lamli floristik tadqiqotlar fan uchun qiziqarli bo‘lgan yangi kashfiyotlar qilish imkonini beradi.

O’zR FA Botanika instituti olimlari so'nggi dala tadqiqotlari davomida O'zbekiston florasi uchun yangi o'simlik turlarini topdilar. Topilgan turlardan biri – Talos tangao’ti (*Hedysarum talassicum Nikitina&Sultanova*) Burchoqdoshlar (*Fabaceae*) oilasiga tegishli bo'lib, birinchi marta *E.Nikitin va B.Sultonova* (Qirg'iziston) tomonidan 1954-yil Talas Olatog'idan topilgan.



Hozirgi vaqtda ushbu o'simlik turining gerbariy namunasi Qirg'iziston Milliy Fanlar akademiyasining Biologiya instituti gerbariyida saqlanmoqda. Shu kungacha mazkur tur Qirg'iziston florasi uchun endemik hisoblanib kelgan, chunki 65 yildan beri O'zbekistonda ushbu tur mavjudligi to'g'risida biron-bir dalil yo'q edi.

O'zbekiston hududidan bu o’simlik Oygaing daryosi (G'arbiy Tyan-Shan) vodiysida, Barkraksoyning yuqori oqimida, dengiz sathidan 3100-3200 m balandlikda topildi.



Talos tangao'ti intensiv ravishda chorva mollarini boqish zonasida o'sadi, bu tabiiy populyatsiyalarni saqlashning cheklovchi omillaridan biridir. Tadqiqot o'tkazilgan hududda 100 tadan kam o'simlik tuplari topildi, bu esa O'zbekiston Qizil kitobining keyingi nashriga kiritish uchun asosdir.

Bundan tashqari, ushbu ekspeditsiya davomida Tangao't turkumining boshqa bir turi topildi - Piskom tangao'ti (*Hedysarum pskemense Popov ex B. Fedtsch)*. Ushbu turning O'zbekiston hududidan terilgan so'nggi gerbariy namunasi 1925-yilga to'g'ri keladi. Turlarning populyatsiyalari Tunduksoy vodiysidan topilgan, bu yerda turlarning ko'p sonli aholisi o'sadi.



